



“KICHKINA SHAHZODA” ASARIDAGI IJTIMOY MASALALAR

Mamirjonova Muslima Elmurodjon qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi
fakulteti 1-bosqich talabasi*

E-mail: muslima.mamirjonova17@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” falsafiy-ertagidagi ijtimoiy masalalar badiiy va falsafiy tahlil qilinadi. Asardagi ramziy obrazlar, asosiy g‘oyalar, muallifning bolalar va kattalar munosabatlariga bo‘lgan qarashlari, hamda Kichkina shahzoda sayohat qilgan 7 sayyoradagi personajlarning shaxsiyati bugungi kun nuqtayi nazaridan badiiy talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *falsafiy ertak, ramzlar, asteroid, personaj, obrazlar tahlili, B-612, sayyora, hayot haqiqatlari, bolalar dunyosi.*

Аннотация. *В данной статье проводится художественно-философский анализ социальных проблем в философской сказке The Little Prince Антуана де Сент-Экзюпери. Символические образы произведения, основные идеи автора, его взгляды на взаимоотношения детей и взрослых, а также личности персонажей семи планет, которые посетил Маленький принц, интерпретируются с точки зрения современности.*

Ключевые слова: *философская сказка, символы, астероид, персонаж, анализ образов, B-612, планета, жизненные истины, детский мир.*

Annotation. *This article provides an artistic and philosophical analysis of the social issues reflected in The Little Prince by Antoine de Saint-Exupéry. The symbolic images, main ideas of the work, the author’s views on the relationship between children and adults, as well as the personalities of the characters from the seven planets visited by the Little Prince are interpreted from the perspective of modern society.*

Key words: *philosophical tale, symbols, asteroid, character, image analysis, B-612, planet, realities of life, children’s world.*

KIRISH

Adabiyot olamida shunday buyuk asarlar borki, ular zamon va makon tanlamaydi. Har qanday davr va jamiyat kishisi uchun birdek foydali, sermazmun manba bo‘lib qolaveradi. Ana shunday nodir asarlardan biri bu fransuz adabiyotining yorqin namoyondalaridan Antuan de sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asaridir. Asar falsafiy-ertak janrida yozilgan bo‘lib, sarlavhani o‘zi bolalar uchun yozilgan oddiy ertakdek taassurot uyg‘otadi, ammo “Hayotning nimaligini anglaydigan kishilar buning ertakdan ko‘ra ko‘proq haqiqatga o‘xshashini darhol payqagan bo‘lur edilar”, deya qayd etilganidek, asarni o‘qigandan keyin hayot va yashash haqida fikrlaringiz ijobiy tomonga o‘zgaradi.

ASOSIY QISM

Asar syujeti Kichkina shahzoda o‘zi yashaydigan B-612 deb nomlanuvchi bir uy kattaligidagi mo‘jazgina sayyorasini va sevimli feruza gulini tark etib, boshqa sayyoralarga sayohatga chiqadi. U tashrif buyurgan har bir sayyora ramziy ma’noga ega bo‘lib, undagi qahramonlar insoniyatning turli xil xarakteri va



jamiyatdagi muammolarni ifodalaydi. Muallif o'z asari orqali kattalarning raqamlar va tushunarsiz ishlarga bog'langan hayotini tanqid ostiga oladi.

Dastlab, Kichkina shahzoda o'z asteroidida yolg'iz yashovchi, ammo o'zini butun olam hukmdori deb hisoblaydigan qirol bilan uchrashadi. U hech kimga hukmronlik qilmasa-da, barchaning unga bo'ysunishini istaydi. Bu illati orqali u boshqaruvchi mansabidagi kishilarning qo'l ostidagilarga qilayotgan adolatsizliklarini eslatadi. Va eslatma qilinadiki: "Har kimdan qurbi yetadigan narsani talab qilish kerak. Hokimiyat avvalo oqilona bo'lishi lozim" [1].

Keyingi sayyorada "Kel, menga bir yaxshilik qil, yayrab qolay: meni bir maqtagin!" deb so'raydi maqtov va e'tiborimni xushlovchi shuhratparast. "Maqtashga-ku maqtayman-a, – dedi Kichkina shahzoda xiyol yelka qisib, – ammo bundan senga nima naf?" shunday deya haqiqatdan kattalar juda g'alati xalq deb o'ylagan holda bu yerni ham tark etadi. Mazkur obraz bugungi jamiyatdagi faqatgina maqtov va mashhurlik ortidan quvuvchi insonlarni yodga soladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning e'tiboriga qaram bo'lib qolgan kishilar ushbu qahramonga juda o'xshaydi.

Uchinchi asteroidda Kichkina shahzoda uzoq qolmasa-da, qisqa vaqt ichida yuragi siqilib, ko'ngli g'ash tortadi. Negaki, bu yerda aroqxo'r, piyonista yashardi. Piyonista ichkilik ichayotganidan uyalishini, ammo aynan shu uyatni unutish uchun yana ichishini aytadi. Ushbu holat insonning o'z muammolarini mast qiluvchi ichimliklarlar bilan unutish naqadar ayanchli oqibatlariga olib kelishini anglatibgina qolmay, kishi muammolardan qochish emas, ularga yechim topish zarurligi ko'rsatadi. Yechim esa ilm-ma'rifatdadir.

To'rtinchi sayyorada o'zini muhim ish bajarayotgan karchalon bilan suhbatda bo'ladi. U tun-u kun hisob-kitobdan boshini ko'tarmasdi. "Nima qilyabsan?" deb so'rasa, "Muhim ish bilan bandman, sayr-tomosha qilib yurishga vaqtim yo'q. Men juda jiddiy odamman" yo'sinida javob beradi. Ajablanarlisi, uning hisobi yulduzlarni sanab, qog'ozga tushurishdan iborat edi. Bu holdan Kichkina shahzoda qancha urinmasin mantiq va naf topa olmaydi. "Kattalar g'alati xalq-da" deya bu yerni tark etadi.

Beshinchi sayyora Kichkina shahzoda uchun ilgargi manzillar ichida rasoroq ko'rinadi, negaki shu yerda yashovchi charog'bon ishining nima maqsadda qilayotganini bilardi: u bir daqiqa davom etajak kun va tun oralig'ida fonus yoqish va o'chirish bilan mashg'ul edi. Lekin bu ishdan nima manfaat? Axir, bepayon koinot qa'rida garddek bo'lib ketgan bu yerlarda na birorta uy va na birorta tirik jon yashardi. Biroq charog'bon manfaatdan ko'ra mas'ulyatni afzal ko'radi.

Oltinchi sayyorada nazariy bilimlar bilan yashab, ammo amalda his qilmagan makonlarni xaritaga tushurish bilan mashg'ul geograf bilan ko'rishadi. Geograf Kichkina shahzodaga Yer sayyorasiga borishni tavsiya etadi va qahramonimiz nihoyat Yerga tashrif buyuradi. Va faqat shu yerdagi o'ziga chinakam do'stlar



orttiradi (Tulki, uchuvchi). Asardagi Tulki personaji boshqa hikoyalardan farqli jihatdan do'stlik, zakiylikning ramziy obrazi bo'lib, shahzodaga hayotiy haqiqatlarni anglashga yordam beradi. Uning: "Odamlar bir haqiqatni unutildilar, ammo sen aslo yodingdan chiqarma: kimniki qo'lga o'rgatgan bo'lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan" degan hikmatli so'zlari birgina shahzodaga emas, balki butun insoniyat olami uchun aytilgandek. Tulki bu jumlasini bilan do'stlik, muhabbat tuyg'ulari qiymatli ekanligini anglatishi orqali asarning bosh g'oyasi talqin qilinadi. Bundan tashqari, Kichkina shahzoda sayyorasidagi baobab daraxtlari bashariyatning jamiki qabih illatlari, feruza guli injiq biroq sevimli yor, uchuvchi esa botiniy hislar ramzi sifatida gavdalantirilgan.

Antuan de Sent-Ekzyuperining ushbu asari dunyoning 180 dan ortiq tillariga tarjima qilingani va halihanuz kitobxonlar tomonidan sevib o'qilayotgan asarlardan biri ekanligi u naqadar katta obro'ga ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi. Adabiyotshunos va mahoratli yozuvchi Ulug'bek Hamdam aytganidek: "Kichkina shahzoda" qissasi bolalik olamiga bag'ishlangan va so'zdan bino etilgan muazzam haykaldir!" [2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Kichkina shahzoda" asarida nafaqat bolalarning beg'ubor olami, balki kattalarning o'zlari sezmagani holda ma'naviyatdan uzoqlashib, moddiy ehtiyojlar ortidan quvib zalolatga yuz tutayotgani ramziy obrazlar orqali mohirona tasvirlangan. Asarni kamida ikki marotaba o'qish kerakki, undagi chuqur falsafiy ma'nolar, hayot haqidagi haqiqatlar hamda insoniy qadriyatlarning asl mohiyati kitobxon qalbiga yanada teranroq anglashilsin. Shu jihatdan, asar har bir insonni o'z hayoti, maqsadi va ma'naviy dunyosi haqida mushohada yuritishga undovchi bebaho ma'naviy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.de Sent-Ekzyuperi. Kichkina shahzoda: Qissa. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019-88 b.
2. U.Hamdam, O'zbek va jahon adabiyotiga chizgilar: Monografiya, - Toshkent : "Qamar media", 2025-708 b.
3. <https://oyina.uz/uz/teahouse/2900>
4. Asadov, Mahmadiyor. (2022). Existential interpretation of the motive of "loneliness" in the work "the stranger" by Albert.